

IJTIMOY-HISSIY TA'LIM ASOSIDA O'QUVCHILARDA HAYOTIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH METODLARI (ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARI MISOLIDA)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19206958>

Xujayeva Feruza Tuxtasinovna

Qo'qon shahar 32-maktabning oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
tel: +998911469560 email: feruzaxujayeva1984@gmail.com

Annotatsiya

Zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchidan pedagogik tajriba bilan birga o'quvchilardagi ijtimoiy-hissiy holatni boshqarishni ham talab etadi. Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida ijtimoiy-hissiy ta'lim (Social-Emotional Learning – SEL) asosida o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Ona tili va adabiyot darslarida interfaol metodlar orqali o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi, empatiya, tanqidiy fikrlash va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari ochib beriladi. Maqolani tayyorlash davomida kuzatish, pedagogik tajriba va tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy-hissiy ta'lim elementlarini dars jarayoniga integratsiya qilish o'quvchilarning nutq faolligi va ijtimoiy moslashuv darajasini sezilarli oshiradi.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim, ijtimoiy-hissiy ta'lim, hayotiy ko'nikmalar, kommunikativ kompetensiya, interfaol metodlar.

Annotation

The modern education system requires teachers to manage the socio-emotional state of students along with pedagogical experience. This article analyzes the issues of forming life skills in students based on socio-emotional learning (SEL) in the modern educational process. The possibilities of developing students' communicative competence, empathy, critical thinking and teamwork skills through interactive methods in native language and literature lessons are revealed. During the preparation of the article, observation, pedagogical experience and analysis methods were used. The results showed that integrating elements of socio-emotional learning into the lesson process significantly increases the level of speech activity and social adaptation of students.

Key words: modern education, social-emotional education, life skills, communicative competence, interactive methods.

Аннотация

Современная система образования требует от учителей управления социально-эмоциональным состоянием учащихся наряду с педагогическим опытом. В данной статье анализируются вопросы формирования жизненных навыков у учащихся на основе социально-эмоционального обучения (СЭО) в современном образовательном процессе. Раскрываются возможности развития коммуникативной компетентности, эмпатии, критического мышления и навыков работы в команде у учащихся посредством интерактивных методов на уроках родного языка и литературы. В процессе подготовки статьи использовались методы наблюдения, педагогического опыта и анализа. Результаты показали, что интеграция

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

элементов социально-эмоционального обучения в учебный процесс значительно повышает уровень речевой активности и социальной адаптации учащихся.

Ключевые слова: современное образование, социально-эмоциональное воспитание, жизненные навыки, коммуникативная компетентность, интерактивные методы.

Zamonaviy ta'lim tizimi asosiy e'tiborni nafaqat zamonaviy yoshlarga bilim berishga, balki o'quvchilar mustaqil hayotida zarur bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishga ham qaratmoqda. XXI asr ta'lim konsepsiyasida tanqidiy fikrlash, mantiqiy fikrlash, muloqotchanlik, hamkorlik va ijodkorlik asosiy kompetensiyalar sifatida e'tirof etiladi. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy-hissiy ta'lim (SEL) o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kungacha uzoq yillar davom etgan an'anaviy ta'lim tizimi asosan ma'lumot berish va yodlatishga asoslangan edi, natijada esa o'quvchilarning faolligi past, mustaqil fikrlash darajasi sust holatda bo'lgan. Xalqaro tajribalardan ko'rinadiki, o'quvchi maktab ta'limini olish bilan birga mustaqil hayotga ham tayyor bo'lishi, kutilmagan vaziyatlarda o'zini tuta olishni bilishi kerak. Shuning uchun dars jarayoniga ijtimoiy-hissiy ta'lim elementlarini joriy etish dolzarb masalalardan biridir.

Sinfdagi sog'lom munosabatlar uchun ijtimoiy-emotsional ta'lim samarali usul bo'lib, asosiy ishlash tizimi motivatsiyani oshirish va darslarda o'quvchini sinf markaziga qo'yishdir. Faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi mashqlar: neyrogimnastika, ta'limiy roliklar, enerjayzerlardan foydalanish esa sinf boshqaruvidagi eng ahamiyatli jihat hisoblanadi. Ijtimoiy-hissiy ta'lim - bu o'quvchilarda o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish, boshqalarni tushunish, mas'uliyatli qaror qabul qilish va samarali muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonidir. Ona tili va adabiyot darslari esa aynan shaxs tarbiyasi, nutq madaniyati va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni singdirishda katta imkoniyatlarga ega bo'lgan fan hisoblanadi.

Ijtimoiy-emotsional ta'lim (SEL) – bu, barcha yoshdagi o'quvchilarga o'z his-tuyg'ularini yaxshiroq anglash, ularni to'liq his qilish va boshqalarga nisbatan hamdardlik ko'rsatishni o'rgatadigan metodikadir. O'quvchilar o'zlashtirgan ushbu ko'nikmalar ularga ijobiy va mas'uliyatli qarorlar qabul qilish, maqsadlariga erishish uchun aniq reja tuzish hamda boshqalar bilan ijobiy munosabatlar o'rnatishda yordam beradi. Ijtimoiy-emotsional ta'limning besh asosiy kompetensiyasi bo'lib bo'lib, ular quyidagilar:

1. O'zini anglash

- o'z his-tuyg'ularini tanish va ularning xatti-harakatlarga ta'sirini anglash;
- kuchli va zaif tomonlarini tan olish, o'z qobiliyatlariga ishonch hosil qilish.

2. O'zini boshqarish:

- turli vaziyatlarda o'z fikr, his-tuyg'u va xatti-harakatlarini nazorat qilish;
- maqsad qo'yish va unga erishish uchun izchil harakat qilish.

3. Ijtimoiy anglash

- o'zidan boshqa madaniyat yoki muhitda ulg'aygan inson o'rniga qo'ya bilish;
- boshqalarga hamdardlik bilan yondashish va uy, maktab hamda jamoada axloqiy xatti-harakat ko'rsatish.

4. Munosabat o'rnatish ko'nikmalari:

- turli muhit va kelib chiqishga ega insonlar bilan sog'lom munosabatlar qurish va ularni saqlab qolish;

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

- boshqalarni tinglash, samarali muloqot qilish, mojaroni tinch yo'l bilan hal etish, yordam so'rash yoki yordam berishni bilish.

5. Mas'uliyatli qaror qabul qilish:

-axloq, xavfsizlik, oqibatlarni hisobga olish va boshqalarning hamda o'zining farovonligini e'tiborga olib, to'g'ri yo'l tutishni tanlash.

Mazkur komponentlarni ona tili darslariga integratsiya qilish dars samaradorligini oshiradi. Interfaol metodlar o'quvchini darsning passiv ishtirokchisidan faol subyektiga aylantiradi. Bu esa o'z navbatida ijtimoiy faol shaxsning yetishib chiqishiga zamin yaratadi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari: klaster, sinkveyn, debat, loyiha metodi kabilar esa ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur maqolada ko'tarilayotgan masalaning asosiy maqsadi ona tili va adabiyot darslarida ijtimoiy-hissiy ta'lim asosida o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish metodlarini aniqlash va ularning samaradorligini asoslash hisoblanadi. Avvalo, ijtimoiy-hissiy tarbiyaning ahamiyatini o'rganish uchun shaxsiy-pedagogik kuzatish, tajriba-sinov ishlari, taqqoslash va tahlil olib borildi. Ijtimoiy-emotsional ta'lim (SEL) uchun amaliyotda sinalgan bir qator tavsiyaviy usullarni keltiramiz:

O'zini anglash: "Besh barmoq" usuli

O'quvchi oq qog'ozga o'z barmoqlarini andoza qilib shakl chizadi va har biriga o'ziga tegishli sifatlarni yozib chiqadi. Masalan, o'ng qo'l barmoqlariga fazilatlarini, chap qo'l barmoqlariga o'z kamchiliklarini yozadi. Bu ruhiy tahlil o'ziga baho berish uchun yordam beradi.

O'zini boshqarish: neyrogimnastika mashqlari

Tajribadan ma'lumki, ta'lim oluvchilar vaziyatga tez moslashishi, hissiyotini izga solishi, ruhiy barqarorlikka erishishi uchun neyrogimnastika mashqlari eng yaxshi vosita bo'lib xizmat qiladi. Masalan, besh marta chuqur nafasni beshgacha sanab, uzun olish, beshgacha sanab ushlab turish va beshgacha sanab nafasni uzun qilib chiqarish. Bu mashq miyada bo'layotgan betartiblik, notinchlikni bir zumda tartibga solib, ruhiy sokinlik beradi. Dars boshida qo'llash diqqatni jamlashga, o'rtasida qo'llash esa charchoqni yoyishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy anglash: "Sen bo'lsang nima qilarding?" usuli

Matn bilan ishlashda juda qo'l keladi. Matn o'qilgandan so'ng qahramonlar hayotidagi eng muammoli vaziyat eslatiladi va "Sen bo'lsang nima qilarding?" savoli beriladi. Masalan, "Rahmat sizga, xonim" da Rojer bo'lsang nima qilarding" yoki "Mehrobdan chayon"da Ra'no bo'lsang nima qilarding?"

Munosabat o'rnatish ko'nikmalari: "Seni bilaman" usuli

Dars boshida har bir o'quvchiga partadoshini kuzatish va dars yakunida bir so'z bilan undagi xislatni ta'riflash topshirig'i beriladi. Hamrohidan yaxshi xislat topishga urinish va uni e'lon qilish inson psixologiyasi bilan ishlashning eng oddiy usullaridan bo'lib, har qanday shaxs o'zi haqida asosli ijobiy fikr egasiga intiladi va ruhiy yaqinlik his qiladi. Bu topshiriqni jamoaviy ko'rinishda ham ishlash mumkin.

Mas'uliyatli qaror qabul qilish: "Tugun va yechim"

O'quvchilarga real hayotiy vaziyat beriladi. Ular yechim taklif qiladi. Masalan: "Sinf doshingiz kamsitildi. Siz qanday yo'l tutasiz?" yoki "Siz xohlagan kiyim uchun pul ajratishmadi. Siz qanday munosabat bildirasiz?" Bu usul mas'uliyatli qaror qabul qilishni o'rgatadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan namunaviy tavsiyalar asosida 6-7-sinf o'quvchilarida tajriba darslari o'tkazildi. Tajriba natijasida o'quvchilarning nutq faolligi sezilarli darajada oshdi, jamoada ishlash ko'nikmalari shakllandi. Shuningdek, o'z fikrini asoslab berish malakasi rivojlandi. Empatiya va

o'zaro hurmat muhiti kuchaydi. Darsga qiziqish darajasi ortdi. Og'zaki so'rovnoma natijalariga ko'ra, o'quvchilarning 78%i interfaol metodlar orqali o'tilgan darslarni an'anaviy darslarga nisbatan samaraliroq deb baholaydi. Qolaversa, ijtimoiy-hissiy ta'lim elementlari qo'llanilgan sinflarda intizomiy muammolar kamaygani ham kuzatildi.

Ona tili va adabiyot fanining mazmuni shaxs tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatishdir. Amaldagi ona tili darsliklarida bir-biriga bog'liq bo'lmagan, grammatik bilimlarnigina mustahkamlashga qaratilgan mashqlar o'rniga matnli topshiriqlarning berilishi ijtimoiy-hissiy ta'lim asosida hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish uchun aynan qo'l keluvchi zamonaviy manbadir. Adabiy matnlar orqali esa o'quvchilar insoniy fazilatlarini anglaydi, qahramonlar taqdirini tahlil qiladi, axloqiy xulosalar chiqaradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ona tili va adabiyot darslarida ijtimoiy-hissiy ta'lim elementlarini qo'llash o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni samarali shakllantirishga yordam beradi. SEL asosida o'qitish ta'lim oluvchilarning nutq madaniyatini rivojlantiradi, ularda mustaqil va tanqidiy fikrlashni shakllantiradi, jamoada ishlash madaniyatini kuchaytiradi. Shuningdek, shaxsiy mas'uliyat hissini oshiradi. Shu bois zamonaviy ta'lim jarayonida ijtimoiy-hissiy yondashuvni keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari. – Toshkent, 2019–2023.
3. Avliyakov N. X. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
4. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2017.
5. Ishmuhamedov R. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Istiqlol, 2019.
6. Social and Emotional Learning Framework // CASEL (Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning) rasmiy manbalari.
7. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action // UNESCO, 2016.
8. OECD. The Future of Education and Skills 2030. – Paris, 2019.